



JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI ISHTIROKIDA TUZILADIGAN FUQAROLIK-HUQUQIY SHARTNOMALARNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li

IIV Akademiyasi Mustaqil izlanuvchisi

Yetmishboyev Muxtor Ma'murjon o'g'li

IIV Akademiyasi Mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7089014>

ARTICLE INFO

Received: 11th September 2022

Accepted: 13th September 2022

Online: 17th September 2022

KEY WORDS

Jazoni ijro etish muassasalari, Qonun, Nizom, Qaror, yuridik shaxs, shartnomalar, mahkum.

ABSTRACT

Maqolada bugungi kunda jazoni ijro etish tizimida jazoni ijro etish muassasalari tomonidan yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzishi va ushbu shartnomalar mazmun mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, mazkur sohani fuqarolik-huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil etilgan. Shu bilan bir qatorda jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator takliflar ilgari surilgan.

Jazoni ijro etish muassasalari mulkiy obyektlariga nisbatan boshqaruv organi sifatidagi mulkiy huquqlarini ham, yuridik shaxs sifatidagi mulkiy huquqlarini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 5 martdagi "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 128-son qarorining 2-ilovasi "Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to'g'risida"gi nizomning 12-bandiga muvofiq, Jazoni ijro etish muassasalarining hududi yashash va ishlab chiqarish hududidan, shuningdek, tutash va yordamchi hududlardan tashkil topadi. Nizomning 14-bandiga muvofiq yashash hududida:

- mahkumlar uchun yashash joylari — umumiy yashash yotoqxonolari, xonalar, kameralar;

- madaniy-maishiy binolar — oshxonalar, klub, kutubxona, maktab, hammom va kir yuvish majmuasi, mahkumlar tovar xarid qilishi uchun savdo shoxobchasi (do'kon), mahkumlar saflanishi va sport bilan shug'ullanishi uchun maydonchalar, omborlar va boshqa kommunal-maishiy bino va inshootlar;

maxsus binolar — tibbiyot qismi, qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlar uchun xonalar, intizomiy bo'linma, mahkumlarni qabul qilish bo'linmasi, muassasa ma'muriyati uchun bino joylashtirilgan.

Bundan tashqari, ayol mahkumalarni saqlashga mo'ljallangan koloniyalari huzurida bolalarning normal yashashi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilgan bolalar uyi tashkil etilgan.

Mahkumlar ishlaydigan ajratilgan hudud ishlab chiqarish hududi deb ataladi hamda ishlab chiqarish hududi doirasida:

- ishlab chiqarish sanoat va ishlab chiqarish qurilish obyektlari;



- omborxonalar binolari;
- ishlab chiqarish xodimlari uchun bino va inshootlar;
- boshqa yordamchi bino va inshootlar joylashtiriladi.

Shuningdek, Nizomning 17-bandiga binoan, tutash va yordamchi hududlar ularda jazoni ijro etish muassasasining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida jihozlangan bino va inshootlarni joylashtirish uchun mo'ljallangan.

Tutash va yordamchi hududlarda nazorat o'tkazish joyi, jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati xodimlari, omborlar, xizmat avtotransport vositalari uchun garaj, yong'in xavfsizligi brigadasi, kommunal-maishiy inshootlar joylashadi[1].

Bu binolar mahalliy davlat hokimiyati organlaridan ajratilib, JIEMlari ushbu mulkiy obyektlarga nisbatan faqat mulk huquqining ikkita elementi, ya'ni mulkdan foydalanish va egalik qilish huquqlariga egadirlar. Shuni ta'kidlash kerakki, JIEMlari mazkur mol-mulklarga nisbatan operativ boshqaruv huquqiga ega. Shu o'rinda, "foydalanish deganda ashyoning foydali xususiyatlarini moddiy va ma'naviy ehtiyojni qondirish maqsadida olish tushuniladi. Egalik qilish esa - mulkiy munosabatlar statikasini bildiradi, ya'ni mulk turg'un holda kimningdir tasarrufida bo'ladi"[2].

Jazoni ijro etish muassasalari ushbu mulklarga nisbatan mulk huquqining barcha elementlariga, ya'ni mulkni egallash, undan foydalanish va mustaqil tarzda tasarruf etish huquqlariga ega. Fikrimizcha, JIEMlari bunday mol-mulklarga nisbatan xo'jalik yuritish huquqiga ega bo'ladi. Shu o'rinda, ushbu qoidani Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to'g'risidagi nizomga alohida band sifatida kiritish maqsadga muvofiq. JIEMlari

mulkiga bunday huquqiy rejimning tatbiq etilishi, mulk huquqining subyekti kim — yuridik shaxs sifatidagi JIEM-mi yoki uning xodimlari? — degan savolning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

birinchidan, Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to'g'risidagi nizomning 5-bandiga muvofiq, Jazoni ijro etish muassasasi yuridik shaxs hisoblanishi, faoliyatini amalga oshirish uchun o'z mustaqil balansiga, shaxsiy g'azna hisobvarag'iga va bank hisobvarag'iga ega bo'lishi keltirib o'tilgan bo'lsa, FKning 39-moddasiga binoan, operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan[3] muassasa, ya'ni mulk huquqi subyekti sifatida Jazoni ijro etish muassasalari tan olinadi;

ikkinchidan, Jazoni ijro etish muassasalari a'zolarining, mehnat shartnomasi asosida ishlayotganlarning sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ham javobgar bo'ladi. Agar mol-mulk uning a'zolariga tegishli bo'lganda edi, bunday javobgarlik kelib chiqmagan bo'lur edi. Shu o'rinda, ushbu qoidani Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to'g'risidagi nizomga alohida band sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 8-moddasining 1-qismiga ko'ra, fuqarolik huquq va burchlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek fuqarolar hamda yuridik shaxslarning, garchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lmasada, lekin fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuniga ko'ra fuqarolik huquq hamda burchlarni keltirib chiqaradigan harakatlaridan vujudga keladi.

Bunday huquqiy asoslarning biri fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'lib, ular JIEMlarning fuqarolik-huquqiy



munosabatlarda ishtirok etishiga huquqiy sharoit yaratadi.

Chunki ko'p qirrali bozor iqtisodiyoti davrida xo'jalik tizimidagi har xil tuzilmalarga mulk huquqining subyektlari (to'la xo'jalik yuritish, operativ boshqarish) haq-huquqlarining berilishi, ularning tashabbuskorligini va o'z faoliyati yakuniga qiziqishini kuchaytiradi. Ushbu xo'jalik subyektlari to'g'risida ko'pgina qonunlarning qabul qilinishi shartnoma amaliyotining ancha kengayishiga olib keladi[4].

Shu bois, Jazoni ijro etish muassasalari mulkchilikning boshqa har xil subyektlari bilan teng huquqli asosda o'z faoliyatini, ya'ni huquqiy layoqatni amalga oshirishida fuqarolik-huquqiy shartnomalarning ahamiyati katta.

Ma'lumki, jazoni ijro etish muassasalari o'z faoliyatining yo'nalishini mustaqil tarzda belgilab, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish uchun oldi-sotti va boshqa turdagi tuziladigan shartnomalari evaziga tushgan daromadni mustaqil tarzda tasarruf etish huquqlariga ega emasligi hamda jazoni ijro etish muassasalari tomonidan olingan foyda Jazoni ijro etish departamentining Markazlashtirilgan jamg'armasi hisobiga o'tkazilishi yuridik shaxsning to'liq ifodalanishiga to'sqinlik qiladi.

Lekin ushbu tushuncha, albatta, jazoni ijro etish muassasalari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va fuqarolar bilan ixtiyoriylik asosida oldi-sotdi va boshqa shartnomalarini tuzadi va shartnomaga rioya qilinmagan yoki uning talablari buzilgan taqdirda tomonlar amaldagi qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda mulkiy javobgar bo'ladilar.

Shu o'rinda, jazoni ijro etish muassasalari o'ziga qarashli mol-mulklarga nisbatan xo'jalik yuritish huquqiga egami yoki operativ boshqarish huquqiga egami degan savolning kelib chiqishi tabiiy. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 178-moddasiga asosan, davlat korxonasi, shuningdek, muassasasi o'zlariga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkining vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradilar. Biroq jazoni ijro etish muassasalari davlat idorasi bo'lgani uchun, davlat tomonidan o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulk (ma'muriy binolar, avtoransport vositalari va h.k.)larni davlatning roziligisiz ijaraga berishga, sotishga, garov sifatida foydalanishga yoki unga operativ boshqarish uchun berilgan ko'chmas va boshqa mol-mulkni turli usulda tasarruf qilishga haqli emas.

Shu bilan bir qatorda, jazoni ijro etish muassasalari davlatning, xususan, u vakolat bergan tegishli davlat organlarining roziligini olmay turib, biron korxonaga, muassasani tuzish, boshqa korxonaga va birlashmalarning muassasi bo'lish huquqiga ega emas va, albatta, uning faoliyati mazmuni birlashmaning tuzilish paytida belgilanib, nizomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida tasdiqlanadi.

Ammo, davlat tomonidan ruxsat berilgan faoliyat, ya'ni tashkilot, muassasa, korxonalarning mulklari va ishlab chiqarish binolarida mahkumlar mehnati natijasida olingan daromad va bu daromad hisobiga sotib olingan mol-mulkka nisbatan, Fikrimizcha, Jazoni ijro etish muassasalari xo'jalik yuritish huquqiga ega bo'ladi.



Jazoni ijro etish muassasalari o'z shartnomaviy majburiyatlari bo'yicha tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari, shuningdek, alohida balansda hisobga olingan mol-mulki bilan javobgar bo'ladi. Ularning yetishmay qolgan qismi doirasida, Fikrimizcha, Jazoni ijro etish muassasalari qarzlari bo'yicha subsidiar javobgarlik[5] Ichki ishlar vazirligi va uning joylardagi ichki ishlar boshqarma va bo'limlariga yuklatilishi lozim va ayni vaqtda "operativ boshqarish huquqi mulk huquqining bekor bo'lishi uchun qonuniy asoslari vujudga kelgan hollarda (mulk huquqining bekor bo'lishi tartibida) bekor bo'lishi mumkin"[6].

Shuni ta'kidlash joizki, Jazoni ijro etish muassasalari o'z faoliyatlarini amalga oshirishda fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzish ya'ni oldi-sotdi va ijara shartnomalaridan ham foydalanadilar. Ularning ichida eng asosiysi va ko'p uchraydigani oldi-sotti shartnomalari bo'lganligi tufayli, uni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ular ichida jazoni ijro etish muassasalari faoliyatida uchraydiganlaridan biri oldi-sotdi shartnomasidir.

Oldi-sotdi shartnomasi birgina Jazoni ijro etish xizmati faoliyatida emas, balki, umuman, bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy vositasidir. Chunki oldi-sotdi munosabatlarini davlat majburiy tarzda o'rnatmaydi, balki, aksincha, bu munosabatlar har bir mulkdorning ehtiyojlarini qondirib, mulkiy ahvolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jazoni ijro etish muassasalari korxonalar va tashkilotlardan o'zi uchun zarur mol-mulk va ishlab chiqarish vositalari sotib olishga haqlidir, ya'ni oldi-sotdi shartnomasining ahamiyati shundan iboratki, Jazoni ijro etish muassasalari ushbu shartnomadan

foydalanganda, Fikrimizcha, barcha hollarda xaridor bo'lib qatnashmaydi balkim ko'pincha sotuvchi bo'lib ishtirok etadi. Xususan, Jazoni ijro etish muassasalari 2022 yilning iyun oyida jami 16 mlrd. 894,2 so'mlik, yil boshidan esa 61 mlrd. 534,9 mln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, may oyiga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 6 mlrd. 247,6 mln. so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: 5 mlrd. 319,3 mln. so'mlik pishgan g'isht, 11 mlrd. 254,2 mln. so'mlik ohak, 1 mlrd. 292,9 mln. so'mlik keramzit, 2 mlrd. 934,6 mln. so'mlik temir-beton mahsulotlari, 1 mlrd. 702,4 mln. so'mlik tosh plitalar, 220,5 mln. so'mlik quruq qurilish qorishmalari, 5 mlrd. 378,4 mln. so'mlik metall mahsulotlari, 5 mlrd. 775,3 mln. so'mlik mebel, 610,4 mln. so'mlik duradgorlik, 15 mlrd. 105,5 mln. so'mlik tikuvchilik, 1 mlrd. 855,8 mln. so'mlik poyabazal, 6 mlrd. 22,7 mln. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilib, 4 mlrd. 62,9 mln. so'mlik miqdorda mahsulotlar ishlab chiqarildi va ushbu ishlab chiqarilgan mahsulotlar tabiiyki, oldi-sotti shartnomalar tuzilishi evaziga amalga oshirildi. Oldi-sotti shartnomalar tuzilishi evaziga jazoni ijro etish muassasalar faoliyatida mahkumlarni ish bilan ta'minlash hajmi yana-da oshirildi. Chunonchi, Jazoni ijro etish koloniyalari va manzil koloniyalarida jazo muddatini o'tayotgan mehnatga layoqatli 18 202 nafar mahkumlarni 12 400 nafari yoki 68,1 foizi[7] mehnatga jalb etildi.

Oldi-sotdi shartnomasini tuzishda uning shartlariga alohida e'tibor berish lozim. Bunday shartlar bo'lib shartnoma predmeti, bahosi va shakli xizmat qiladi. Baho sotuvchi bilan xaridorning kelishuviga muvofiq belgilanadi, ba'zi hollarda bahoni davlat ham belgilashi mumkin (Fuqarolik



kodeksining 356-moddasi). Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda shartnoma tegishli shaklda rasmiylashtirilishi shart, ya'ni shartnoma yozma, notarial tartibda guvohlantirilgan yoki vakolatli davlat idoralaridan ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi lozim.

Jazoni ijro etish muassasalari o'z faoliyatida zarur moddiy-texnik vositalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, odatda Ichki ishlar vazirli, yuridik shaxslar va fuqarolar bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzadi.

Oldi-sotdi shartnomasida taraflarning, xususan sotuvchining xaridorga sotilayotgan ashyo sifati haqida asosiy ma'lumotlarni berish, ashyoni xaridorga topshirish, xaridorning esa sotib olayotgan ashyoni qabul qilib olish va buning uchun kelishilgan bahodagi haqni to'lash kabi huquq va burchlari belgilanadi.

Sifatsiz ashyo sotilganda, xaridor sotuvchidan ashyoni boshqasiga almashtirib berishni, ashyoning bahosini

tegishli darajada kamaytirishni yoki kamchiliklarni bepul tuzatib berishni, shuningdek, shartnomaning bekor bo'lishini talab qilishga haqlidir. Shuningdek, shartnoma yozma shaklda tuzilgan taqdirda, uning ijro etilish muddati, taraflarning javobgarligi, nizolarni hal qilish va boshqa shartlar ham ko'rsatilishi mumkin[8].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Jazoni ijro etish muassasalarining mulkiy huquqlarini amalga oshirishi bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, uning davlat organi sifatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga ruxsat etilishi, shartnomalar tuzish orqali mablag' topishi qonun hujjatlarida belgilangan bo'lsada, ammo uning huquqiy maqomiga xos barcha xususiyatlar o'z aksini topgan aniq qonunchilik asosini, xususan O'zbekiston Respublikasi "Ozodlikdan mahrum etish xizmatlari to'g'risida"gi qonunni yaratish maqsadga muvofiqdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 5 martdagi "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"128-son[1] qarori. <https://lex.uz/docs/4756536>.
2. Azizov H. Xususiy mulk huquqining rivojlanishi. Huquq-Право. – 1998. –№ 1. – b. 76.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism). <https://lex.uz/docs/111189>
4. Рахмонкулов М.Х. Гражданско-правовой договор, проблемы свободы и не обходимости в условиях переходной экономики // Право и рынок: Теоретические пробле- мы развития. – Т., 1994. – С. 35.
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 329-moddasiga binoan, qonun hujjatlari yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo'lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo'shimcha ravishdagi javobgarlik "subsidiar javobgarlik" deyiladi.
6. Zokirov I. b. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. Umumiy qism. – Т., 1996. – b. 162.
7. Jazoni ijro etish Departamenti 2022 yil 6 oylik xisoboti.
8. Мильштейн Н. Предпринимателю о хозяйственных договорах. – Т., 1994.